



AGROBIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI.

Xolmatov Diyorbek Usmonovich

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchi.

Annotatsiya. Iqtisodiyotning jo‘shqin rivojlanishini ta‘minlash masalalarini hal etishda innovatsiyalar birinchi darajali rol o‘ynaydi. Innovatsion faoliyat ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini yangi raqobatbardosh mahsulotni o‘zlashtirish va chiqarish, tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlariga samarali kirib borishini ta‘minlashga qodirdir.

Kalit so‘zlar. Innovatsion menejment, yangilik, fan-texnika, Innovatsiya, texnologiya,

Innovatsion menejment – O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiya – mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo‘lib, unda innovatsion mahsulot amaliy qo‘llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

Mamlakatlar raqobatdoshligini baholashning ko‘rsatishicha, korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish xizmat qiladi:

- tabiiy va iqlim resurslardan oqilona foydalanish;
- jamg‘arilgan boyliklardan o‘z o‘rnida foydalanish;
- investitsiyalarni faol jalb qilish;
- innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash.



Demak, mamlakat agrobiznes korxonalarida ham innovatsiyalarni joriy etish, innovatsion menejmentni joriy etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lish bo'lish mumkin.

Innovatsion menejmentning eng muhim amaliy vazifalaridan biri – innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirishdir va u quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- innovatsion menejmentning tegishli nazariy bazasini ishlab chiqish;
- innovatsion menejment sohasida mavjud muammolarni echish uslublarini asoslash;
- innovatsion jarayonlar samaradorligini baholash uslubiyoti va ularga ta'sir ko'rsatish vositalarini ishlab chiqish.

Iqtisodiyotning jo'shqin rivojlanishini ta'minlash masalalarini hal etishda innovatsiyalar birinchi darajali rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyat ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini yangi raqobatbardosh mahsulotni o'zlashtirish va chiqarish, tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlariga samarali kirib borishini ta'minlashga qodirdir. «Innovatsiya» atamasi birinchi marta I. SHumpeter tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida taklif etilgan edi. U innovatsiya deb ishlab chiqarish sohasida qo'llangan yangilikni tushungan. SHumpeterning fikricha, innovatsiya foydani harakatlantiruvchi, hosil qiluvchilarning eng asosiylaridan biridir.

Keyinroq Y.SHumpeter, N.D.Kondratevning iqtisodiyot rivojlanishi uchun to'liqlik konsepsiyasini o'zining innovatsion nazariyasi bilan bog'ladi. Natijada u siklli rivojlanish nazariyasini shakllantirdi. Siklli rivojlanishning asosiy ichki (endogen) mexanizmi, deb u yangiliklarni joriy etish (innovatsion) jarayonini hisobladi. Qayd etish mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy dinamikani anglashga bunday yondashuvning turli moddasi fanda hozirda ham ustunlik qilmoqda.

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi bilan bog'liqligi tufayli ko'tarilayotgan masala mamlakatimiz uchun



alohida ahamiyatga ega. SHuning uchun iqtisodiy adabiyotda mazkur kategoriya mohiyati va mazmunini aniqlashga alohida o‘rin berilgan va berilmoqda.

Lekin hozirgi paytda mamlakatimiz va xorijiy iqtisodiy adabiyotda «yangilik kiritish», «yangilik» va «innovatsiya» singari kategoriyalarning turli talqinlari uchramoqda. Ba’zi hollarda bu tushunchalar sinonimlar sifatida ishlatilmoqda. Lekin ular o‘rtasida tafovutlar mavjud, bu tushunchalarni bir-biridan ajratish lozim. Ularning har biri innovatsion menejmentning muayyan elementini ifodalaydi. «Yangilik» («novshestvo», «invention») tushunchasini yangi mahsulotda ro‘yobga chiqarilishi mumkin bo‘lgan yangi g‘oya, yangi texnologiya, yangi usul va shu kabilar sifatida ta’riflash qabul qilingan. Unga katta iqtisodiy xarajatlarni talab etmaydigan ixtiro yoki ratsional torlik taklifini kiritish mumkin. U asosan, texnologik jarayonni yoki ishlab chiqarishxo‘jalik faoliyatini takomillashtirishga imkon beradi.

Yangiliklar kashfiyotlar, patentlar, tovar belgilari, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (texnologiya, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni) hujjatlari, nou-xau tushunchalari, ilmiy yondashuvlar yoki tamoyillar, hujjatlar (andozalar, tavsiyalar, uslubiyatlar, yo‘riqnomalar va h.k.), marketing tadqiqotlari natijalari ko‘rinishida rasmiylashtirilishi mumkin.

Boshqachasiga aytganda, bu fundamental, amaliy tadqiqotlarning biron-bir faoliyat sohasidagi samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlanmalar va tajriba ishlarining rasmiylashtirilgan natijasidir. Lotincha «invus» sohasidan kelib chiquvchi «innovatsiya» tushunchasini yangilikdan foydalanish natijasida yaratilgan yangi yoki takomillashgan mahsulotda yoki texnologiyada mujassamlashgan innovatsion faoliyatning pirovard natijasi sifatida tushunish lozim. Bu mahsulot yoki texnologiya bozorda sotiladi yoki ishlab chiqarish, boshqarish va boshqa faoliyatga joriy etiladi. Mazmuniga ko‘ra «innovatsiya» va «yangilik kiritish»ga sinonimlar sifatida qaralishi mumkin.



Innovatsiya nazariyasining shakllanishi V.Zambart, V.Mitcherlik va Y.SHumpeterning asarlarida tadqiq etilgan edi. O'sha davr tadqiqotlarining umumiy xususiyati tadbirkorning ishlab chiqarishning olg'a rivojlanishi tizimida asosiy bo'g'in sifatida, «texnika taraqqiyotining amalga oshiruvchisi» sifatida olg'a surilishidir.

Innovatsiyalarni boshqarishning alohida muammolarini echishga mamlakatimiz va xorijiy amaliyotdagi mavjud yondashuvlarning asosiy hodisalari va xulosalarining tanlanma tahlili quyiroqda amalga oshiriladi. Ma'lumki, muayyan davrlarda mavjud bo'lgan uzoq muddatli tendensiyalar tashqi omillar ta'siriga duch keladi, buning natijasida ular muhim ravishda o'zgarishi, o'ziga xos mazmun va yo'nalish kasb etishi mumkin. Innovatsiya sohasida vujudga kelgan vaziyatni hozirda bir yoqlama tavsiflash mumkin emas. Bir tomondan, u yangi iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda innovatsion jarayonlarni infratuzilmaviy ta'minoti muammolari mavjudligi bilan, boshqa tomondan esa innovatsion jarayonlar yuqori faolligini rag'batlantirish mexanizmining yo'qligi, tovar ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarni qabul qiluvchanligi yuqori emasligi, innovatsion mahsulotlar bozori shakllanishi sustligi, intellektual mehnat va ishlab chiqarish sohasida barqarorlikning davlat tomonidan kafolatlari mavjud emasligi bilan xarakterlanadi.

Mahsulotning muayyan maqsadlarga mo'ljallangan nisbatan kichik partiyalarga talab keltirib chiqargan bir yo'nalishidagi tovar massasining bir xil emasligi va bozor ehtiyojlarining xilma-xilligi sharoitlarida ishlab chiqarish faoliyatining eng xarakterli xususiyatlaridan biri namoyon bo'ladi - keng nomenklaturadagi mahsulotni uni iste'molning muayyan sharoitlariga moslashtiruvchi turli ichki modifikatsiyalarda kichik seriyalarda ishlab chiqarish bilan shug'ullanish.

Birinchi, innovatsiyalar vositasida inson intellektini, fantexnika natijalarini hayotda amalga oshiradi. Bu mehnat faoliyatining intellektuallashuviga,



uning fan sig'imi yuksalishiga yordam beradi (pog'onadan-pog'onaga harakatlanishda jamiyatning o'sib boruvchi intellektuallashuvchi qonuniyati).

Ikkinchidan, aynan innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlarning doirasi kengayadi, ularning sifati yaxshilanadi. Bu har bir shaxs va jamiyatning ehtiyojlari o'sishiga va bu ehtiyojlarning qondirilishiga ko'maklashadi (ehhtiyojlarning yuksalishi va tabaqalanishi qonuni).

Uchinchidan, innovatsiyalar ishlab chiqarishga yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni jalb etishga, tovarlar va xizmatlarni mehnat, materiallar va energiyaning kamroq sarflari bilan yaratilishiga imkon beradi (mehnatni tejash qonuni).

To'rtinchidan, u yoki bu sohada innovatsiyalarning to'planishi takror ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini, ehtiyojlarning o'zgargan tarkibiy tuzilishi va tashqi muhitning tarkibiy tuzilishi bilan muvofiqalashtirishga yordam beradi (mutanosib rivojlanish qonuni).

Beshinchidan, innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining rag'bati bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa kichik biznes sohasida, raqobat kurashida g'olib chiqish, bozorda yangi joylarni egallash uchun yangi tovar va texnologiyalarni axtarishga va o'zlashtirishga undaydi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsulot ishlab chiqarishning muhim omili, fan tomonidan atrof dunyoning hodisalari va xususiyatlari yangi qonuniyatlarini kashf qilish negizida ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalarini takomillashtirish hisobiga mehnat unumdorligining oshirilishini ta'minlaydi. Inglizcha atamalar lug'atlarida ravshanki, «innovatsiya» yangilik kiritilishi yoki yangilikning sinonimidir va ular bilan bir qatorda qo'llanishi mumkin. Adabiyotda innovatsiya mohiyatini ta'riflashga bir necha xil yondashuvlar uchraydi. Ikki nuqtai nazar eng keng tarqalgan. Birinchi holda yangilik kiritish ijodiy jarayonning yangi mahsulot (texnik), texnologiya, metod va h.k. ko'rinishidagi natijasi sifatida tasavvur qilinadi, ikkinchisida esa yangi mahsulotlar, elementlar, yondashuvlar, qoidalarning mavjudlari o'rniga kiritilishi jarayoni sifatida. Bizga innovatsiyalarning ijodiy



jarayonning yaratilgan (yoki joriy etilgan) yangi iste'mol qiymatlari ko'rinishidagi natijasi sifatida ta'riflanishi maqbulroq ko'rinmoqda. Bu yangi iste'mol qiymatlarining qo'llanishi ulardan foydalanuvchi shaxslar yoki ko'nikmalarini o'zgartirishlarini talab qiladi. Bunda bozor munosabatlari sharoitlarida innovatsiyaning eng muhim xususiyati bo'lib, uning iste'mol xususiyatlari yangi ekanligi chiqish lozim. Texnik jihatdan yangi ekanligi esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Innovatsiyani yangi foydali natijaning paydo bo'lishi va ishlab chiqilishi, moslashtirilishi va ishlatilishi jarayoni sifatida qaralishida innovatsiyaning mohiyati uning quyidagi tavsiflarida (xossalarida) namoyon bo'ladi:

-uzoqlik, chunki innovatsiya samara olinishining maksimumlari bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarning eng uzoq davom etadiganidir;

-innovatsion jarayonning kompleks xarakteri, u o'zida tadqiqot (fan) va biznesning xossalarini birlashtiradi;

-innovatsion operatsiyalarning noaniqliqligi va yuqori xatar darajasi, ular bu sohada qat'iy belgilab olingan maqsadning mumkin emasligini va faoliyat natijalarini oldindan aytib bera olishning past darajasini vujudga keltiradi.

Innovatsiyalarning ikkiyoqlamaligi, kompleks xarakteri, ishlatilishining ko'p tomonlamaligi, sohalari va usullari xilma-xilligi ularni innovatsion jarayonlarni modellashtirish metodologiyasini asoslab berish maqsadida turkumlashning muhimligini belgilab beradi. Turli mualliflar tomonidan innovatsiyalarning ko'plab klassifikatlari taklif etilgan. Ular orasida Y.S.Humpeter, I.Ansoff, A.Kleyknnext, P.Druker kabi iqtisodiyot va menejment sohasidagi mashhur mutaxassislar bor. Rossiya nashrlarida A.N.Svetkov, P.N.Zavshin, A.V.Vasilev, A.I.Prigojin, V.V.Gorshkov va E.A.Krekova, E.A.Utkin, G.I.Morozova va boshqalar tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Mamlakatimiz nashrlarida innovatsiyalar turkumlanishi M.A.Mahkamova, I.S.Tuxliev, B.B.



Abdullaev, T.Xasanova asarlarida tadqiq etilgan. Innovatsiyalarni qator belgilari bo'yicha turkumlash qabul qilingan.

Radikallik darajasi, iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati bo'yicha innovatsiyalarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- bazis innovatsiyalar;
- yaxshilovchi innovatsiyalar;
- yuzaki innovatsiyalar (ratsionalizatorlik tusidagi).

Bunday bo'lishi ortida ikki innovatsion jarayonlar: pioner va quvlab etuvchi innovatsion jarayonlar turibdi.

Pionerlik tusidagi innovatsiya jahonda etakchilikka erishishni ifodalaydi (masalan, AQSH) quvlab etuvchi innovatsiya arzonroq va tez natija berish mumkin (masalan, YAponiya). Bu yo'lda o'stiruvchi deb ataladigan innovatsiyalar yaratiladi, ular mavjud ishlab chiqarish jarayonlaridagi va mahsulotlardagi xususiyatlarning yaxshilanishi bilan bog'liq. Natijalarining yo'nalganligi bo'yicha innovatsiyalar ilmiy instrumentariy sifatidagi innovatsiyalarga, innovatsiya - jarayonlarga va innovatsiya - mahsulotlarga bo'linadi.

Innovatsiyalarning iqtisodiy tizim rivojlanishidagi rolga muvofiq ravishda innovatsiyalarning boshqa klassifikatsiyalari ham mavjud. Innovatsiyalarning yangiligi darajasi bo'yicha klassifikatsiyasi - innovatsiyalar to'plamining muhimligi darajasiga baho berish maqsadida yangilik darajasi bir xil guruhlarga taqsimlanishidir. Innovatsiyaning yangiligi tushunchasi uning mutloq yangi ekanligi hamda mahsulotga yoki butun texnologik jarayonga taalluqli bo'lishi mumkin yoki faqat uning mavjud mahsulot yoki jarayonning vazifalari tavsiflariga o'zgartiruvchi ba'zi elementlariga taalluqli bo'lishi mumkin. SHu nuqtai nazardan butunlay yangi mahsulotlar beruvchi bazis innovatsiyalarni mavjud mahsulotlarni qanchalik takomillashtiruvga daxldor yaxshilovchi innovatsiyalarni, shuningdek ishlab chiqarishning yangi metodlarini joriy etish yoki mavjudlarini takomillashtirish bilan bog'liq innovatsiyalarni ajratib ko'rsatadilar.



Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2021. -40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF -5264- son Farmoni. 29.11.2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi –T.: O'zbekiston, 22.12.2017 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
5. Fatxuddinov R.A. «Innovatsionny menedjment: klassifikatsiya, struktury i otlichitelnye cherty innovatsionnyx organizatsiy; Ekonomicheskie zony, zakony organizatsii, nauchnye podxody i prinsipy i dr.»: Uchebnik dlya vuzov. Izd.5-ye, ispr., dop. «Piter», 2007
6. Sobirova Z.Z. "Innovatsion menejment" o'quv - uslubiy majmua. –T.: TDIU. 2010, - 198 b.